




Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 16-avgust, № 167 (9062)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida mustaqilligimizning 34 yilligi arafasida "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" bosh g'oyasiga hamohang tarzda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash masalalari yuzasidan tarixiy anjumaning o'tkazilishi mamlakatimiz buguni va kelajagi uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, yurtimizning hozirgi kuni, istiqbolli navqiron, azmu shijoatli, bilim va tafakkurga to'la barkamol avlod qo'lida. Bugungi yoshlar, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, barcha sohada mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tarishga qodir, yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlod.



YANGI TARIX YARATAYOTGAN AVLOD — FAXRIMIZ

O'tgan davr o'kinchi va bugunning havasi

An'anaga ko'ra Buxoro davlat universiteti faxriylari xonadoniga tashrif buyurdik. Ko'p yillar ta'lim tizimida rahbar, pedagog-xodim bo'lib ishlagan nuroniylar bilan samimiy suhbatda ular o'zlarining talabalik xotiralari, oliygohda faoliyat yuritgan davri haqida so'zlab berdi. Keyingi yillarda sohada yuz berayotgan o'zgarishlardan xursandligini aytib, tizimda ishlayotgan bugungi avlodga havasi kelishini ta'kidlashdi. Yoshlarning oliygohlarga o'qishga kirishidan tortib ularni bitirib ishli bo'lishigacha davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganini alohida qayd etdilar.

Haqiqatan ham, yosh avlod taqdiriga bunday munosabat, g'amxo'rlik ilgari hech kuzatilmagan. Bugun yoshi ulug' insonlarning ko'pchiligi oddiy o'qish

uchun yetishmaydigan adabiyotlarni izlab, ovorayu sarson bo'lib, qoniqarsiz sharoitdagi auditoriyalar, o'quv xonalari, laboratoriyalarda ta'lim olib, ming tashvishlar bilan o'z yo'lini topgan.

Ishga joylashish masalasi-ku, haqiqiy muammo hisoblanardi. Aniqrog'i, o'ta-onasining cho'ntag'i "baquvvat", tanish-bilishi bo'lganlar yaxshi ish o'rinlarga joylashardi. Bu an'ana mustaqillikning 20 yilligiga qadar ham u yoki bu ko'rinishda davom etib keldi.

Hozirgi kunda farzandlarimizning o'qishga kirishi, ishga joylashishi uchun keng shart-sharoitlar yaratilayotgan yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan ulug'vor islohotlarni ko'rib, faqat va faqat quvonamiz. Ana shu ezgu ishlarga kamarbasta bo'layotganimizdan faxr hissini tuyamiz.

Нўтани назар



Akmal MUHAMMADOV olgan suratlari.

Ildizi qirg'ilgan illatlar

Mustaqillikdan keyin ham oliy ta'lim tizimini o'nglash ancha qiyin kechdi. Barcha soha singari institut va universitetlarning aksariyati sobiq

ittifoq davri binolari va jihozlari bilan "boyitilgan" holda ko'rinish berardi. Bir qancha oliygohlarning esa o'zini o'nglash darajasi kun sayin susayib ketayotgandi.



Senatorlar — hududlarda

NAMANGAN VILOYATIDAGI ISLOHOTLARNING BORISHI TAHLILIIY O'RGANILDI

Avval xabar qilganimizdek, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Namangan viloyatida bo'lib, qator yig'ilishlar o'tkazdi.

Kuni kecha esa Oliy Majlis Senati Kengashining navbatdagi sayyor majlisi bo'lib o'tdi.

Majlisda parlament nazorati doirasida viloyat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha belgilangan vazifalar bajarilishi muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, shu yilning birinchi yarim yilligida yalpi hududiy mahsulot 35,3 trln. so'mni tashkil qilgan. Viloyat iqtisodiyoti 7,3 foiz, shu jumladan, sanoat — 9,1, qurilish sohasi — 8,5, xizmatlar ko'rsatish — 12, qishloq

xo'jaligi 4,4 foizga o'sgan.

Investitsiya dasturlari doirasida 248,6 mln. dollarlik 445 ta loyiha ishga tushirilgan, qariyb 11 ming ish o'rinlari yaratilgan. 1,6 mlrd. dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan. Eksport hajmi 319,2 mln. dollarga yetib, o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 104,2 foiz o'sgan. 492 turdagi mahsulot 46 ta xorijiy davlatga chiqarilgan e'tiborga molik.

Kichik va o'rta tadbirkorlik

faoliyatiga 2,4 trln. so'mlik kredit mablag'lari ajratilgan. Hokim yordamchilari hamda mahalla bankirlari ko'magida 19,5 mingta mikroloyiha ishga tushirilgani natijasida 40 mingta ish o'rni yaratilgan.

Aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash dasturi doirasida 191 ming kishining bandligi ta'minlangan. Kambag'al oilalar reestridan 8,5 mingdan ziyod oilalar yoki 31,5 ming aholi chiqarilgan.

Muhokama jarayonida senatorlar viloyatda sezilarli ijobiy ishlar amalga oshirilganini qayd etib, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarga ham e'tibor qaratdi hamda mas'ul rahbarlarning axborotlari eshitildi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

QAROR IJROSI DEPUTATLAR E'TIBORIDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda Prezidentimizning "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzurida Mahallalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori ijrosi holatini nazorat-tahlil tartibida o'rganish yakunlari muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bugungi kunda Nukus shahridan boshlab, tumanlar va qishloqlar, hatto eng chekka ovullar ham har tomonlama o'zgarib, rivojlanib boryapti. Zamonaviy korxonalar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, sport va ijtimoiy sohaning boshqa

obyektlari, kommunikatsiya tarmoqlari qurilmoqda.

Deputatlarning hududda bo'lib o'tayotgan har bir uchrashuv va muloqotlari ham aholining farovonligini ta'minlash maqsadlariga qaratilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzurida Mahallalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi. Hududdagi 452 ta mahallaning har biriga 500 mln. so'mdan jami 226 mlrd. so'm miqdorida mablag' ajratildi. Ushbu sarmoyalar hisobidan loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Nukus shahri va tumanlarda tegishli komissiyalar tuzildi.



MA'NAVIYAT ORQALI UYG'ONAYOTGAN MILLAT

Millatning qayta tug'ilishi, avvalo, qalbdan sodir bo'ladigan ma'naviy uyg'onishdir. O'zligini anglagan, tarixi va kelajagi uchun mas'uliyatni his etadigan xalqning yuksak taraqqiyot sari dadil intiladi. Bu borada ulug' ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Millatning ma'naviy tarbiyasiz kamol topishi mumkin emas. Ma'naviyat — millatning foydasi, xulqi, dunyoqarashi, insonparvarlikka va ilimga bo'lgan munosabatidir" degan so'zlari bugungi islohotlar mohiyatini yanada teran anglashga yordam beradi.

Mushohada

Shu ma'noda, yangi O'zbekistonda kechayotgan islohotlar mazmuni ham ma'naviyatni tiklash, jamiyat ongini yuksaltirish, xalq qalbidagi faxr va birdamlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yangi O'zbekistonning muvaffaqiyatli kelajagini tasavvur qilishda ma'naviyat endilikda oddiy mafkuraviy vosita emas, balki fuqarolik jamiyatini shakllantiruvchi, davlat barqarorligini ta'minlovchi strategik asos sifatida maydonga chiqmoqda. Bu asosni mustahkamlashda esa Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga

oshirilayotgan keng qamrovi va teran ma'naviy islohotlar hal qiluvchi o'rin tutmoqda.

Bu borada ma'naviyatga oid har bir tashabbus, madaniyat va san'at sohalaridagi har bir o'zgarish inson qalbiga qaratilmoqda. San'at va ma'naviyat orqali har bir insonda millatga, jamiyatga daxldorlik tuyg'usini uyg'otish asosiy maqsadga aylangan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida ijodkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, milliy merosni asrab-avaylash va dunyo miqyosida targ'ib etish borasidagi chora-tadbirlar — ularning barchasi umummilliy uyg'onishga hissa qo'shmoqda.



Fakt va raqamlar

KREATIV IQTISODIYOT RAVNAQI UCHUN KENG IMKONIYATLAR

Madaniyati boy va rang-barang yurtimizda kreativ iqtisodiyot ravnaqi uchun juda keng imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda bu sohada **14 mingta** korxona faoliyat yuritib, ularda qariyb **100 ming** kishi mehnat qilmoqda.

Kelgusi 5 yilda kreativ iqtisodiyot hajmini **2 karra ko'paytirish**, yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 5 foizga yetkazish maqsad qilingan.



Kreativ industriyaning eng katta sohalaridan biri — hunarmandchilik. Yilning o'tgan davrida bunday mahsulotlar eksporti **6,5 million dollar**ni tashkil qildi.

Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish maqsadida:

- Buyuk Britaniya Qirollik fondi bilan hamkorlikda Toshkent shahrida akademik platforma yaratish rejalashtirilgan;
- u orqali magistrlar tayyorlash, tadqiqotlar

o'tkazish, o'quv qo'llanmalarini amaliyotda qo'llash yo'lga qo'yiladi;

platforma bilan **3 mingdan ziyod** iqtidorli hunarmandlar bosqichma-bosqich qamrab olinadi. Keyinchalik uni **amaliy san'at maktabiga** aylantirish ko'zda tutilgan.



NAMANGAN VILOYATIDAGI ISLOHOTLARNING BORISHI TAHLILIY O'RGANILDI

➡ Joriy yilning birinchi yarim yillicida aholi bandligini ta'minlash rejasi viloyat bo'yicha 107 foizga bajarilgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda sustkashlikka yo'l qo'yilgan. Xususan, Chust, Uychi, Norin va Yangi Namangan tumanlarida reja nisbatan 5 – 10 foizdan kamroq aholi ishga joylashtirilgan.

Shuningdek, ishga tushgan investitsiya loyihalarida xotin-qizlarning bandligini ta'minlash bilan bog'liq ishlar manzilli tashkil qilinmagani uchun ushbu yo'nalishda reja Yangiqo'rg'on, Chortoq va Namangan tumanlarida 10 foizga ham bajarilmagan.

Og'ir toifadagi 23 ta mahallada 1640 ta oilani kambag'allikdan chiqarish maqsadida quyosh fotoelektr stansiyalari, shu jumladan, Norin tumanida 450 KVT bo'lgan fotoelektr stansiyasi qurish ishlari kechiktirilmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining kasbiy ko'nikmalar markazlarida 2025-yil 1-apreldan boshlab 12 ta yangi kasb bo'yicha o'quv kurslari tashkil etilishi belgilangan. Biroq amalda suv tejovchi zamonaviy sug'orish texnologiyalariga xizmat ko'rsatuvchi texnik hamda elektromobillarga texnik xizmat ko'rsatuvchi chiqarish kasblari bo'yicha o'quv kurslari tashkil qilinmagani achinarlidir.

Tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borilmagani sababli ijtimoiy

daftarlarga kiritilgan ishsiz aholi bandligini ta'minlagan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat mulkidagi bino hamda inshootlarni ijaraga berish bo'yicha imtiyozlardan foydalanilmagan.

Majlisda “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida ayrim rahbarlar tomonidan o'zlariga birlashtirilgan kambag'al oilalarga amaliy yordam ko'rsatish, ularning turmush sharoitini yaxshilash va bandligini ta'minlashga ko'maklashish ishlari o'z holiga tashlab qo'yilgani ta'kidlanib, bu borada mas'uliyatni tubdan oshirish bo'yicha tegishli vazifalar belgilandi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlariga aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda tegishli hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining ijrosi yuzasidan mutasaddi rahbarlarning hisobotlarini Kengash sessiyalarida eshitish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Shuningdek, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi ishchi guruh Namangan viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati, aholi bandligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va eksport salohiyatini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida hududlarda bo'ldi.

O'rganish doirasida To'raqo'rg'on tumanida joylashgan

“Iftixor kiyim sanoat” MCHJ misolida to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan yirik investitsiyaviy loyihaga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur loyiha qiymati 198,5 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Loyiha 2025-2026-yillar davomida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, yiliga 80 ming tonna erkaklar ustki kiyimlari va mato mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Bu orqali 3 mingta doimiy ish o'rni yaratiladi. Loyiha kelgusi yilda to'liq ishga tushiriladi.

Ishchi guruh a'zolari Davlatobod tumanidagi To'quvchi mahallasida ochilgan huquq-tartibot maskani faoliyati, jinoyat holatlari va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar rejasi bilan ham tanishdi.

Aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha 2024-yilda ijobiy natijalarga erishilgan. Jumladan, ijtimoiy reestr va ishsizlar ro'yxatidagi 194 nafar fuqaroga imtiyozli kreditlar ajratilgan, 5 nafar fuqaroga asbob-uskunalar sotib olish uchun subsidiyalar berilgan. Natijada yil yakuniga qadar umumiy kambag'allik darajasi 5,7 foizdan 2,5 foizgacha pasaygan.

Mahallada elektr, ichimlik suvi va yo'l infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha ham amaliy ishlar bajarilgan. 35 ta yaroqsiz elektr ustuni yangisiga almashtirilgan, 16

ta tungi yoritqich o'rnatilgan, 1,8 km. suv tarmog'i yangilangan va 2,2 km. yo'l asfaltlangan.

Ishchi guruh a'zolarining mahalla aholisi bilan muloqoti davomida hududdagi 2 ta transformator va 4 ta elektr ustunining ta'mirlab holatda ekani aniqlandi. Ushbu murojaat yuzasidan tegishli tashkilotlarga bosqichma-bosqich hal etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Ishchi guruh Yangi Namangan tumanidagi xalq deputatlari tuman Kengashi faoliyatini ham ko'zdan kechirdi. Tanishuv jarayonida mahalliy darajadagi boshqaruvning samaradorligi, deputatlar va aholi o'rtasidagi muloqotning mustahkamlanayotgani hamda dolzarb masalalarning joyida hal etilayotgani ijobiy baholandi.

Bundan tashqari, ishchi guruh xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025-yilgi faoliyati bo'yicha taqdimoti bilan ham tanishdi. Taqdimotda deputatlik nazoratini kuchaytirish, mahalliy darajada aholini o'ylantirayotgan muammolarga Kengash orqali yechim topish amaliyoti muhokama qilindi.

Shuningdek, viloyat ichki ishlar boshqarmasining tezkor boshqaruv maskani – situatsion markaz faoliyati o'rganildi. U orqali huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashda amalga oshirilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratildi.

“Dashtbog” mahalla fuqarolar

yig'inida “mahalla yettilligi”ning faoliyati, xususan, yoshlarni ish bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, jinoyatchilikning oldini olish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama etildi. Mahallada faoliyat yuritayotgan “Mustafo” MCHJda erkaklar kiyimlari ishlab chiqarish jarayoni, ishchilar uchun yaratilgan sharoitlarga alohida e'tibor qaratildi.

Norin tumanidagi Xo'jaqo'rg'oncha mahallasida aholi xonadonlarida intensiv usulda forel baligi yetishtirish loyihalari bilan tanishildi. Shu yerning o'zida “mahalla yettilligi” hamda mahalla bankirining faoliyati, aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish borasida belgilangan vazifalarning ijrosi bo'yicha taqdimot o'tkazildi.

Ishchi guruh a'zolari Yangi Namangan tumanida joylashgan taraqqiyot va servis sanoat zonasidagi qator korxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Xususan, mebel ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan “Sarkor” MCHJda ish jarayonlari, mahsulot turlari va joriy etilgan zamonaviy texnologiyalar ko'rsatildi.

Senat ishchi guruhi tomonidan viloyatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tahliiliy tarzda o'rganildi, mavjud muammolar aniqlanib, ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

“Xalq so'zi”.



QAROR IJROSI DEPUTATLAR E'TIBORIDA

➡ Yig'ilishda mazkur hujjatda belgilangan vazifalardan kelib chiqib amalga oshirilgan ishlar haqida axborot berildi.

Ma'lum qilinganidek, mazkur mablag'lar hisobidan bugungi kunda 452 mahallada jami 2386 ta loyiha bo'yicha qurilish ishlari to'liq yakunlanib, foydalanishga topshirilgan.

Tadbirda hududlarda aholiga qulayliklar yaratish maqsadida piyodalar yo'lagi, ichki ko'chalarga tungi yoritish chiroqlari, bolalar maydonchasi, ko'priklar, bekatlar barpo etish yuzasidan qilingan ishlarga oid raqamlar keltirildi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash, joylarda turli jinoyatlarning oldini olish borasidagi ishlarning davomi sifatida respublika bo'yicha

jami 1461 ta videokamera, 30 ta svetofor va boshqalar o'rnatilgan. 316 ta mahalla fuqarolar yig'iniga quyosh panellari qo'yilib, 52 mahallada qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilgani qayd etildi.

Munozaralar davomida deputatlar har bir yo'nalishga alohida e'tibor qaratdi. Ayniqsa, ijtimoiy soha obyektlari va infratuzilma uchun ajratilgan mablag'lar bahs-munozaralarga sabab bo'ldi.

Deputatlar tomonidan ko'tarilgan savollarga mas'ullar tegishli javob hamda tahliiliy ma'lumotlarni taqdim etdi.

Yig'ilishda kelgusi rejalarni yuzasidan maslahatlashuvlar tashkil etilib, mavzuga oid muhokamalarni doimiy ravishda o'tkazishga kelishib olindi.

“Xalq so'zi”.

QONUN KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARIMIZNI KAFOLATLAYDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqinda bo'lib o'tgan majlisida “Ijtimoiy ish to'g'risida”gi qonun loyihasi deputatlar tomonidan atroflicha ko'rib qizqilib, qabul qilindi va Senatga yuborildi. Hujjat loyihasini tayyorlashda deputatlar, olimlar, mutaxassis hamda ekspertlar faol qatnashdi. Ularning huquqiy, ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalari alohida inobatga olindi.

Sharh

Ayni paytda ushbu hujjat keng jamoatchilik o'rtasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Sababi aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish bugungi kunda dolzarb bo'lib, hayotiy zaruratlarga aylanib bormoqda. Zotan, yangi O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirish, har bir fuqaroga munosib turmush sharoiti yaratish, ayniqsa, ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlarni davlat himoyasiga olish milliy siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bu yo'lda asosiy dasturilamal vazifasini bajarmoqda. Bosh qonunimizda ijtimoiy davlatning asosiy maqsad va vazifalari aniq ifoda etilgan. Uning muqaddimasida “demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birlamlik” g'oyalarga sadoqatimiz namoyon qilingan.

Shu nuqtay nazardan aytganda, “Ijtimoiy ish to'g'risida”gi qonunda ijtimoiy ish qonuniyligi, inson huquqlariga hurmat, adolat, zimlilik va professionallik tamoyillari asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Hujjatda ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordam tushunchalari ajratilgan, ish jarayonining darajalari (mikro, mezo, makro) aniqlangan. Ijtimoiy xodimlar ehtiyojmand toifalarni aniqlash, ehtiyojlarini baholash, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash, huquqlarni ta'minlash, mahalliy hokimiyat va nodavlat tuzilmalar bilan hamkorlik qilish kabi vazifalarni

bajaradi. Yangi mexanizmlardan biri – superviziya tizimi. Bu tajribali mutaxassislar tomonidan ijtimoiy xodimlarga muntazam maslahat va qo'llab-quvvatlov ko'rsatish orqali ularning kasbiy hamda emotsional barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, qonun ijtimoiy xodimlarning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, faoliyatini tizimli hamda xolis olib borishini kafolatlaydi.

Qonunda ijtimoiy xizmatlar va yordamning turlari hamda shakllariga aniqlik kiritilmoqda. Jumladan, ijtimoiy xizmatlar birlamchi, ixtisoslashtirilgan va yuqori ixtisoslashtirilgan turlarga ajratilib, fuqaroning uyida, mahallasida, ijtimoiy obyektlarda hamda onlayn shaklda ko'rsatilishi nazarda tutilyapti.

Qonun nafaqat ijtimoiy ishlarni tartibga soladi, balki ehtiyojmand shaxslar yoki oilalar sharoiti tizimli tahlil qilib, ularni og'ir turmush sharoitidan chiqib ketishi bo'yicha aniq ishlar amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Darvoqe, dunyo amaliyotida ijtimoiy davlat konsepsiyasi so'nggi o'n yilliklarda keng tarqaldi. Finlyandiya, Litva, Koreya Respublikasi, Gruziya, Yaponiya va Xitoy tajribasi, shuningdek, YUNISEF, Kolumbiya universiteti va xalqaro ekspertlar tavsiyalari asosida hujjatda ilg'or mexanizmlar joriy etildi.

Nazira MUXTOROVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi raisi.

Sayyor qabul

MUAMMOLAR YECHIMI BOR

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi Shuhrat Aslanov Nishon tumanida sayyor qabul o'tkazdi.

Dastlab senator tadbir ishtirokchilarini O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayrami bilan samimiy qutlab, mamlakat qonunchiligidagi yangiliklardan xabardor etdi. Xususan, fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlikni liberallashtirishga doir qonunlar, shuningdek, hududlarda infratuzilmani rivojlantirish va qurilishlarni tartibga solish, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi xususida batafsil so'z yuritdi.

O'tgan davrda Senatning mahalliy Kengashlar bilan hamkorligi yuqori pog'onaga ko'tarilganligini, nazorat-tahlil faoliyati doirasida joylarda 60 ga yaqin tadbirlar uyushtirilib, muayyan soha, tarmoq va hududlarni rivojlantirishga oid vazifa, tavsiya va ko'rsatmalar belgilab berilganligini e'tirof etdi.

Shuningdek, Prezidentning joriy yil 23-iyunda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning yaqqol namunasi ekanligini alohida ta'kidladi.

Senat a'zolari tomonidan mahalliy darajada xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish, fuqarolarning mahalliy boshqaruvda keng ishtirok etishini mustahkamlash borasidagi amaliy ishlarga ham to'xtalib o'tildi.

Bugungi kunda bildirilgan har bir murojaat e'tiborimizdan chetda qolmaydi, – dedi Shuhrat Aslanov. – Meni senator emas, balki oddiy xalq xizmatchisi sifatida ko'rib, o'zingizni qiynayotgan masalalar haqida ochiq aytishingiz mumkin. Mas'ullar bilan hamkorlikda maqbul yechimlarni, albatta, topamiz. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan maqsad ham xalqimizning dardiga darmon bo'lish, o'z hayotidan mamnun yashashi uchun ko'maklashishdir.

Ochiq muloqot chog'ida yoshlarni tadbirkorlikka yo'naltirish orqali yangi ish o'rnlari yaratish, banklarning kredit va qurilish uchun joy olinishiga amaliy yordam berish, kam ta'minlangan hamda nochor oilalarni uy-joy bilan ta'minlash, yashash uylari tomini yangilash, murakkab jarrohlik muolajasida ko'mak, qishloqlar infratuzilmasini yaxshilash, yo'llarni sifatli ta'mirlash borasidagi murojaatlar tegishli mutasaddilarga yo'naltirildi va ijrosi nazoratga olindi.

“Xalq so'zi”.

INSONPARVARLIK SIYOSATINING YAQQOL NAMOYONI

Kuni kecha matbuotda davlatimiz rahbarining “O'zbekistondagi bir guruh falastinlik fuqarolarga davlat g'amxo'rligi, mehr-shafqat tamoyillari asosida ko'mak berish tizimini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni e'lon qilindi.

Aks sado

Hujjat bilan tanishar ekanman, undagi vazifalar ijrosi yurtimizda inson hayoti, sha'ni uning qaysi millatga mansub bo'lishidan qat'i nazar, naqadar ulug'lanishga yana bir bor amin bo'ldim.

Hujjatda falastinlik fuqarolar mehmonlar deb izzat qilinmoqda. Shunga yarasha ularga osoyishta Vatanimizda o'zlarini begonadek his etmasliklari uchun barcha sharoitni yaratib berish ko'zda tutilgan. Har bir oila, har bir

bolaning taqdiri e'tibordan chetda qolmagan. Ayniqsa, ularning yashashi, ta'lim olishi, tibbiy xizmatlardan foydalanishi, umuman, inson hayoti uchun muhim barcha xizmat va imkoniyatlar taqdim qilinaypti.

Jumladan, mehmonlarning farzandlarini bog'cha va maktablarga jalb etish hamda ularni o'qitish xarajatlarining yuz foizi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplab berilishi ta'kidlangan. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi esa ta'lim tashkilotlarida mehmonlar

farzandlarining moslashuvi va har tomonlama kamol topishi yuzasidan doimiy monitoringni amalga oshirish choralari uchun mas'ul bo'ladi.

Farmonda belgilangan asosiy mas'ullardan yana biri – “mahalla yettilligi” tizimidir. Bunda asosiy e'tibor mehmonlarni hamjihatlikda mahallaning ma'naviy muhitiga qo'shish vazifasi belgilanyapti. Mehmonlar istiqomat qilayotgan mahallalardagi “yettilik” mas'ullari ularning milliy an'ana va qadriyatlarimiz, kundalik hayotimizga tez kirishib ketishlari, davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan yuksak hurmat-e'tiborni to'laqonli his etishlari yuzasidan javobgardir. Bunda mahalla joylardagi muammolarni hal qiladigan

chinakam tizim sifatida, xususan, mahallabay ishlash orqali yana bir bor o'zini namoyon etishi talab qilinadi.

O'zbekiston – insonparvar yurt, bag'rikeng maskan. Uning xalqaro siyosati ham xuddi shunday samimiy va xalqchil tamoyillarga asoslangan. Bizda kim bo'lishidan qat'i nazar, avvalo, insoniyligi, odamiyligi uchun hurmat ko'rsatiladi. Falastinlik mehmonlarga g'amxo'rlik ortida ham yurtimizning xalqaro miqyosdagi obro'si, o'zi tanlagan poztisyalarga sodiq ekanligi yaqqol namoyondir.

Rustam KALONOV, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zosi.

OLIJ QADRIYATLARIMIZNING YORQIN IFODASI

➡ Bir oy ichida 100 nafar falastinlik yarador ayol va bolalar ularning hamrohlar bilan birga O'zbekistonga evakuatsiya qilinib, tegishli tibbiy yordam ko'rsatilgani xalqimiz tomonidan olqishlandi.

Har qanday sinovli vaziyatlarda yurtidoshlarimiz bag'rikengligi, mehr-shafqati va insonparvarlikni namoyon etishga shayligini his qilamiz. Biz, deputatlarga fuqarolarimizdan kelib tushayotgan murojaatlarda Falastin xalqining boshiga tushgan og'ir va musibatli vaziyatlardan bezovta bo'lib bildirayotgan fikrlari bugungi kunda ham xalqimizning bag'rikenglik hamda mehru muruvvatga asoslangan qadriyatlarimiz barhayot va yuksak darajada ekanligidan dalolat berib turibdi.

Saxovatpesha xalqimizning ikkinchi jahon urushi davrida 1,5 millionga yaqin jabrlanganlarni – oilalarni, ota va onadan ajragan bolalarni o'z bag'riga olib, uyining to'ridan joy bergani, bir burda nonini baham ko'rganini dunyo biladi. O'zbekiston zaminida e'tibor, mehr

va parvarish topganlarning bugungi avlodlari o'sha davrlarni, bag'rikeng xalqimizni iliq va samimiy lutf ila minnatdorlik bilan eslashadi.

Insonparvarlikka asoslangan munosabatlarni yanada mustahkamlash hamda ehtiyojmand insonlarga yordam ko'rsatishni oliy maqsad qilgan davlatimizning izchil siyosati natijasida bugun ham jamiyatimiz ezgulik g'oyalari atrofida birlashmoqda.

Prezidentimizning “O'zbekistondagi bir guruh falastinlik fuqarolarga davlat g'amxo'rligi, mehr-shafqat tamoyillari asosida ko'mak berish tizimini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni yurtimizda inson qadri, sha'ni va hayotining ustunligi, muhtojlarga mehr hamda ko'mak berish, insonparvarlik g'oyalari mujassam bo'lgan e'tiqodimiz va azaliy qadriyatlarimizning dalilidir.

O'zbekistonga olib kelingan falastinlik mehmonlarga boshpana berilishi va ko'mak ko'rsatilishi bo'yicha aniq amaliy ishlarni o'zida mujassamlagan ushbu hujjat ko'p millatli xalqimizning asl qadriyatlarini

